

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AXBOROT QAYDLARINING STRUKTURAVIY VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Nodira Xoliyarova,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis ingliz va o‘zbek tillarida axborot qaydlari (informatsion matnlar)ning strukturaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijasida ikki tildagi axborot qaydlarining makrostrukturasi va kommunikativ-pragmatik vazifalarida bir qator umumiy va farqli belgilar aniqlangan. Xulosa tariqasida shuni ta’kidlash mumkinki, axborot qaydlarining til-madaniy xususiyatlari ularning diskursiv tabiatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: axborot qaydi, strukturaviy tahlil, funksional lingvistika, qiyosiy tilshunoslik, diskurs tahlili, kommunikativ pragmatika.

Abstract. This thesis is devoted to a comparative-typological study of the structural, semantic and functional features of information notes (informational texts) in English and Uzbek. The research identifies a number of similarities and differences in the macrostructure and communicative-pragmatic functions of information notes in both languages. It is concluded that the linguocultural characteristics of information notes are the primary factor determining their discursive nature.

Keywords: information note, structural analysis, functional linguistics, comparative linguistics, discourse analysis, communicative pragmatics.

Аннотация. Данная диссертация посвящена сравнительно-типологическому исследованию структурных, семантических и функциональных особенностей информационных заметок (информационных текстов) в английском и узбекском языках. В исследовании выявлен ряд сходств и различий в макроструктуре и коммуникативно-прагматических функциях информационных заметок в обоих языках. Делается вывод о том, что лингвокультурные характеристики информационных заметок являются основным фактором, определяющим их дискурсивную природу.

Ключевые слова: информационная заметка, структурный анализ, функциональная лингвистика, сравнительная лингвистика, дискурсивный анализ, коммуникативная прагматика.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda global kommunikatsiyaning jadal rivojlanishi axborot matnlarining yangi tur va shakllarini vujudga keltirdi. Jumladan, *axborot qaydi* - rasmiy muloqot, media diskurs va institutsional kommunikatsiya doirasida keng tarqalgan maxsus janr sifatida alohida lingvistik tadqiqot obyektiga aylandi. Ingliz tili global kommunikatsiya tili sifatida ushbu janrning shakllantiruvchi tili bo‘lsa, o‘zbek tili o‘ziga xos milliy-madaniy an‘analarga ega bo‘lgan mustaqil til sifatida axborot qaydlarini o‘ziga xos tarzda qayta ifodalaydi.

Tilshunoslikda axborot qaydlarini o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek tillari doirasida ularni qiyosiy-tipologik aspektda o‘rganish hali yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ingliz tilshunosi Jon Sueylz o‘zining janr tahlili nazariyasida ta’kidlaganidek, “Janr a’zolari ma’lum bir kommunikativ maqsadlarga ega bo‘lgan kommunikativ hodisalar sinfini o‘z ichiga oladi” [12] va aynan shu mezonlar axborot qaydlarini mustaqil janr sifatida ajratish imkonini beradi.

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, axborot qaydlari zamonaviy rasmiy, ommaviy va raqamli diskurslarda tobora muhim o'rin egallaydi va ularning lingvistik tabiati hali to'liq o'rganilmagan.

Material va metodlar. Tadqiqot uchun materiallar sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi axborot qaydlari tanlab olingan va janr tahlili metodi ya'ni Sueylz va Bxatiya ishlab chiqqan "harakat bosqichlar" (moves analysis) modeliga asosan axborot qaydlarining ritorik tuzilmasini aniqlash, qiyosiy-tipologik metod, leksik-statistik metod va Ostin va Sirl nutq aktlari nazariyasi [11] asosida axborot qaydlarining illokutiv kuchini baholash maqsadida pragmatic tahlili metodlari qo'llanilgan.

Matn tahlilida Hallidayning sistematik-funksional grammatikasi asosiy nazariy asos sifatida qabul qilindi [8]. Bu nazariya tilning uch meta-funksiyasini, ya'ni g'oyaviy, shaxslararo va matniy ajratadi va axborot qaydlarini ushbu uch o'lchamda bir vaqtda o'rganish imkonini beradi. Bundan tashqari van Deykning tanqidiy diskurs tahlili yondashuvi matnlardagi g'oyaviy va ijtimoiy o'lchamlarni baholashda qo'llanildi [13].

Adabiyotlar sharhi va natijalar: axborot qaydlari va ularning strukturaviy xususiyatlari bo'yicha dunyo tilshunos olimlari o'zlarining salmoqli ilmiy qarashlari bilan ushbu soha rivojiga hissa qo'shgan va bugungi kunda ham dunyo tilshunoslik sohasi ushbu masala bo'yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, Jon Sueylz "janr tahlili" va "ritorik harakatlar" bo'yicha ilmiy qarashlarga ega bo'lib, janrlarni shunchaki matnlar to'plami emas, balki kommunikativ maqsadlarni amalga oshirish uchun xizmat qiluvchi tizimli tadbirlardir [12] deya ta'riflaydi. Taniqli lingvist olim Devid Kristalga ko'ra axborot beruvchi yozma nutqning besh asosiy stilistik belgisini sanab o'tadi va axborot qaydlarida grafik xususiyatlar birinchi o'ringa chiqadi, shuningdek, bunday matnlarning strukturasi sarlavhalar, punktlar va matnning sahifada joylashuvi uning tushunarli bo'lishini ta'minlaydi [5]. Asosiy akademik qiziqishi ingliz tili grammatikasi, korpus lingvistikasi, stilistika va semantika va pragmatika bo'lgan taniqli olim Jefri Lich ta'kidlashicha "Tematik ma'no – xabarning tartib va urg'u jihatidan qanday tashkil etilganligi orqali uzatiladigan ma'nodir"[7]. Uning qarashlariga ko'ra, gapdagi so'zlar tartibi va majhul nisbatning qo'llanilishi (*It is noted that...*) o'quvchi e'tiborini kerakli faktga yo'naltirish uchun xizmat qiladi.

Ingliz tilidagi axborot qaydlarining makrostrukturasi tahlil qilish natijasida uchta asosiy harakat bosqichi (moves) aniqlandi: M1 — Anons, bu bosqichda eng muhim yangilik *5W1H* (*who, what, when, where, why and how*) tamoyiliga ko'ra (Kim? Nima? Qachon? Qayerda? Nima uchun? Qanday?) ifodalanadi; M2 — Elaboratsiya, bunda ma'lumot kengaytiriladi, kontekst, ma'lumotlar va iqtiboslar keltiriladi; M3 — Fon/Xulosa, bu qismda tarixiy kontekst, qo'shimcha ma'lumotlar yoki kelajakka ishora qilinadi.

O'zbek tilidagi axborot qaydlarida ushbu makrostruktura asosan saqlanib qolgan, biroq muhim farqlar kuzatildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, o'zbekcha axborot qaydlarining

ko'p qismida M1 bosqichi inglizcha versiyaga nisbatan kengaytirilgan holda ifodalanadi: voqea konteksti va fonli ma'lumotlar anons qismiga kiritiladi. Bu holat ingliz tilida dominantlik qiluvchi "*inverted pyramid*" (*teskari piramida*) prinsipi o'zbek tilida qisman qayta ko'rinish (reconfiguration) jarayoniga uchrashini ko'rsatadi. *Bxatiya* ta'kidlaganidek, sirtqi tuzilmalar o'zgarsa ham, janrning ijtimoiy maqsadi saqlanib qoladi [2]. Jumlar tuzilishi nuqtai nazaridan ingliz tilidagi axborot qaydlarida *nominal guruhlar* ustunlik qilsa, o'zbek tilidagi axborot qaydlarida esa *fe'l shakllari* yanada faolroq ishtirok etadi. Bu xulosa *Halliday va Mattiessen* tomonidan ta'riflangan grammatik metafora nazariyasining ikki tilda turlicha namoyon bo'lishini tasdiqlaydi [9].

Pragmatik tahlil shuni aniqladiki, ingliz va o'zbek tillarida axborot qaydlarining asosiy illokutiv kuchi *informativ* va *asserativ* nutq aktlari bilan ifodalanadi. Biroq ikki til o'rtasida qo'shimcha illokutiv funktsiyalarda sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilidagi axborot qaydlarida "*baholash*" (*evaluative*) funksiyasi nisbatan past ifodalanadi, o'zbek tilidagi axborot qaydlarida esa baholash funksiyasi ancha kuchliroq ifodalanadi.

Iqtibos strategiyalari tahlili ham muhim farqlarni ochib berdi. Ingliz tilidagi axborot qaydlarida bevosita iqtibos (direct speech) strategiyasi ustunlik qiladi. Kaldas Kulthard tomonidan ta'riflanganidek, bevosita iqtibosning faol ishlatilishi "*objective reporting*" strategiyasining lingvistik ko'rsatkichi hisoblanadi [4]. O'zbek tilidagi axborot qaydlarida to'g'ri iqtibosdan ko'ra ko'proq *bilvosita iqtibos* (*indirect speech*) yoki *aralash iqtibos* strategiyalari qo'llaniladi. Modallik kategoriyasi tahlili ham diqqatga sazovor natijalar mavjud. Ingliz tilidagi axborot qaydlarida epistemik modallik markerlar (*allegedly, reportedly, apparently, sources say*) juda faol ishlatiladi. O'zbek tilidagi matnlarda bunday markerlar ancha kamroq uchraydi va ko'proq passiv qurilmalar qo'llaniladi.

Muhokama. Ingliz va o'zbek tillarida axborot qaydlarining umumiy kommunikativ maqsadi — axborot uzatish — bir xil bo'lsa-da, ushbu maqsadga erishish strategiyalari tildagi grammatik va leksik imkoniyatlar bilan birgalikda madaniy-kommunikativ an'analar tomonidan ham shakllantiriladi. Strukturaviy jihatdan aniqlangan farqlar, xususan o'zbek tilidagi axborot qaydlarida kontekst va fon ma'lumotlarining anons qismiga kiritilishi, "*xolistik*" yoki "*yaxlit*" ma'lumot berish an'anasining lingvistik ifodasini ko'rsatadi. Shu bilan birga, "*teskari piramida*" prinsipi ingliz tilidagi matbuot uslubining standart talabi bo'lib qolganiga qaramay, o'zbek tilidagi axborot matnlarida bu prinsipning qisman o'zlashtirilganligi seziladi. Bu holat Ferklou ta'riflangan "intertekstuallik" (matnlararo munosabat) jarayonini, ya'ni bir janrning boshqa janr an'analari o'zlashtirishi fenomenini aks ettiradi [6].

Funksional tahlil natijalarini umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, ingliz tilidagi axborot qaydlari "*obyektiv xabar berish*" (objective reporting) ikonografiyasiga kuchli mos keladi: bevosita iqtiboslar, epistemik markerlar va passiv qurilmalar orqali muallif mas'uliyatini minimallashtirishga intilish yaqqol ko'rinadi. O'zbek tilidagi axborot qaydlarida esa muallif ovozining nisbatan kuchli ifodalanishi, baholash elementlarining

yuqori chastotasi va rasmiy leksikaning faol qo'llanilishi matnga "institutsional ishonchlilik" xususiyatini beradi. Amerikalik professor Mayk Shudsonning aksariya tarixiy tadqiqotlarda tasdiqlagan xulosasiga ko'ra, jurnalistik obyektivlik tabiiy haqiqat emas, balki madaniy ixtiro hisoblanadi.

Xulosa. Shuni yakuniy xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida axborot qaydlarining strukturaviy va funksional xususiyatlarini qiyosiy aspektda o'rganib, bir qator muhim xulosalarga keldi. Ikki tildagi axborot qaydlari umumiy makrostruktura (Anons–Elaboratsiya–Fon) doirasida tashkillanadi, biroq o'zbek tilidagi matnlarda ushbu bosqichlar chegaralari ancha erkin, kontekstual ma'lumotlar esa dastlabki qismda ko'proq uchraydi. Bu farq "teskari piramida" modelining o'zbek matbuot an'anasida hali to'liq standart maqomini olmaganligini ko'rsatadi.

Funksional tahlil shuni ko'rsatdiki, ikkala tilda axborot qaydlarining birlamchi maqsadi informativ kommunikatsiya bo'lsa-da, ushbu maqsadga erishish strategiyalari madaniy-kommunikativ an'analar va grammatik-leksik imkoniyatlar ta'siri ostida turlicha shakllanadi. Ushbu xulosalar "janr madaniy-lingvistik konstrukt" degan nazariy pozitsiyani tasdiqlaydi va tilshunoslik, matbuotshunoslik hamda tarjimashunoslik sohalari uchun amaliy ahamiyat kasb etadi. Xususan, axborot qaydlarini o'zbek tilidan ingliz tiliga yoki aksincha tarjima qilishda faqat leksik-grammatik moslikni emas, balki strukturaviy va pragmatik rekonstruksiyaning ham amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.
2. Bhatia, V. K. (1993). *Analysing Genre: Language Use in Professional Settings*. London: Longman.
3. Biber, D., & Conrad, S. (2009). *Register, Genre, and Style*. Cambridge: Cambridge University Press.
4. Caldas-Coulthard, C. R. (1994). On Reporting Reporting: The Representation of Speech in Factual and Factional Narratives. In M. Coulthard (Ed.), *Advances in Written Text Analysis* (pp. 295–308). London: Routledge.
5. Crystal, D. (1969). *Investigating English Style*. Longman.
6. Fairclough, N. (1992). *Discourse and Social Change*. Cambridge: Polity Press.
7. G. Leech (1974), *Semantics*, London: Penguin, pp.xii + 386 (2nd edition, entitled *Semantics: the Study of Meaning*, 1981)
8. Halliday, M. A. K. (1994). *An Introduction to Functional Grammar* (2nd ed.). London: Arnold.
9. Halliday, M. A. K., & Matthiessen, C. M. I. M. (2004). *An Introduction to Functional Grammar* (3rd ed.). London: Arnold.
10. Schudson, M. (1978). *Discovering the News: A Social History of American Newspapers*. New York: Basic Books.
11. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Swales, J. M. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge: Cambridge University Press.
13. van Dijk, T. A. (1988). *News as Discourse*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
14. Yunusova, M. T. (2021). *O'zbek media matnlarining lingvopragmatik xususiyatlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.